

Fattoeva Zarina Raxmatovna
TIQXMMI MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti, o'zbek tili va
adabiyoti kafedrasasi assistenti.
zarinafattoeva85@gmail.com
tel.:(+99893)4787006
Baxshilloeva Shaxnozabonu Baxriddin qizi
Buxoro davlat universiteti Filologiya
va tillarni o`qitish (o`zbek tili)
2-bosqich talabasi

QISHLOQ XO`JALIGIDA PERIFRAZALARNING QO`LLANILISHI

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida perifrazalarning qo'llanilishi va ular haqidagi ba'zi bir nazariy ma'lumotlar yoritib berilgan. Perifrazalarning tabiatan murakkab hodisa ekanligi, nutqda qo'llanganda ma'no jilolarining tovlanishi va asosan qayerlarda qo'llanilishi aytib o'tilgan. Tilshunosligimizda perifrazalarning hali o'rganilmagan qismi bo'lmish qishloq xo'jaligidagi perifrazalarning badiiy asarlarda va so'zlashuv uslubida qo'llanilishiga misollar keltirilgan. Qishloq xo'jaligida qo'llaniluvchi perifrazalarni mashhur yozuvchi Tog'ay Murodning asarlari asosida topishga harakat qildim. Ushbu asarlarda xalqimiz tilida qo'llaniluvchi turli perifrazalarga duch kelish mumkin.

Kalit so'zlar: Perifraza, tasviriy ifoda, metaforik perifraza, qishloq xo'jaligida qo'llaniluvchi perifrazalar;

Annotatsiya: В данной статье описывается использование перифразов в узбекском языкознании и некоторые теоретические сведения о них. Было отмечено, что перифраз по своей природе является сложным явлением, при его употреблении в речи снимается смысловой прилив и где он преимущественно употребляется. В нашем языкознании имеются примеры употребления сельскохозяйственных перифраз в художественных произведениях и разговорном стиле, что является неизученной частью перифраз. В этих произведениях можно встретить различные перифразы, используемые в языке нашего народа.

Ключевые слова: Перифраз, изобразительное выражение, метафорический перифраз, перифраз, используемый в сельском хозяйстве;

Abstract: This article describes the use of periphrases in Uzbek linguistics and some theoretical information about them. It was mentioned that periphrasis is a complex phenomenon by nature, when it is used in the speech, the gloss of meaning is removed and where it is mainly used. In linguistics, there are examples of the use of agricultural periphrases in literary works and conversation style, which is an unexplored part of periphrases. In these works, one can come across various periphrases used in Uzbek people speech.

Keywords: Periphrasis, figurative expression, metaphorical periphrasis, periphrasis used in agriculture;

Til – millatning ruhi. Millatning tili qanchalik boy bo'lsa, u millat shunchalik yengilmas va kuchli bo'ladi. O'z navbatida mamlakatning tayanchi bo'lgan tilimizni rivojlantirish hammamizning o'z qo'limizdadir. Shuning uchun ham tilimizni dunyo miqyosida har tomonlama

tanitishni xohlasak, uning hali ochilmagan qirralarini ochib, hammamiz o'z hissamizni qo'shishimiz kerak.

Kishilar qadimdan bir-birlari bilan o'zaro muloqot davomida biror bir narsa va buyumlarning yoki bo'lmasa, atrofdagi boshqa narsalarning nomini shunchaki atabgina qolmay, ularni boshqacha joziba bilan, o'z nutqlarini bezagan holda, emotsional-ekspressivlik va milliy mentallikni ifodalagan holda boyitib borganlar. Bu esa, o'z navbatida, nutqning jozibadorligini, naqadar serjiloligini anglatgan.

O'zbek tilida perifrazalar yuqoridagi vazifalarni bajarishga xizmat qiladi. Periferik birliklar, o'z navbatida, nutqimizni ta'sirchan, aniq va chuqur mulohaza bilan aytilganini bildirish uchun xizmat qiladi. Avvalo, perifraza grekcha so'z bo'lib "paraphrasis" – ya'ni tilshunoslikda "tasviriy ifoda" ma'nosida qo'llaniladi. Qishloq xo'jaligida perifrazalarning qo'llanilishi o'ziga xos. Misol uchun, hamma sevib iste'mol qiladigan mahsulotimiz kartoshkaning o'rnida ikkinchi non birligini qo'llaganimizda nutqimiz ancha jozibador bo'ladi. Yoki boshqa bir misol olaylik, xalq orasida jannat mevasi sifatida anjir nazarda tutiladi. Antik davr mualliflari tomonidan muqaddas kitoblarda istifoda etilayotgan perifrastik birliklar qadimgi til va uslubiyat nazariyotchilari Aristotel, Kvintilian tomonidan qayd etilganligi, bundan tashqari, mahalliy va sharqiy slavyan tilshunosligining ham diqqat markazida bo'lganligi, ilm-fan to'la rivojlanmagan davrlardan boshlab ushbu atama talqin qilinganligi manbalarda qayd etiladi.[1-433b]

Xo'sh, perifraza o'zi nima? Perifraza – maqto'v, bir tushunchani bir nechta so'z bilan tasvirlovchi vosita. Perifraza bilvosita nomlanishi kerak bo'lgan obyektning shunchaki nomlash emas, balki biror tushunchani boshqacha nom bilan tasvirlash demakdir. Masalan: tunggi yorug'lik perifrazasini oladigan bo'lsak, ushbu jumlar orqali oy nazarda tutilayotgusini bilish qiyin emas. Chunki, oy qorong'u tunda insonlarning yo'lini yoritadi. Shuning uchun ham u tunggi yo'rug'lik sifatida tasvirlangan. Demak, perifrazalarda predmet va odamlarning nomlari ularning belgilariga ishora qiluvchi so'zlar bilan almashtiriladi va nutqda qo'llaniladi.

Perifrazalar- predmet, voqea va hodisalarni o'z nomi bilan emas, balki ularning xarakterli belgi-xususiyatlarini tasviriy usullar orqali ifodalash jarayonidir. Ma'lumki, kishilar predmetga-uning ko'zga tashlanib turadigan muhim, xarakterli belgisiga ko'ra nom berishadi. Shu kabi parafrazalar ham predmet-hodisalarni nutq talabi bilan nomlaydi, ammo unda muhim xususiyatlarni ochib beruvchi tomonga e'tibor qilish lozim.[1-434b]

I.R.Galperin perifrazaga «bir predmetning ma'lum bir xususiyatini ko'rsatish uchun uni boshqa nom bilan atashdir» deya ta'rif berib, perifrazalarni til perifrazali va nutq perifrazali kabi turlar orqali izohlaydi. Til perifrazalarining ko'p qo'llanilishi va kontekstdan tashqarida xam tushunarli bo'lishini ta'kidlaydi. U nutqiy perifrazani mantiqiy va metaforik perifrazaga ajratadi. Metaforik perifraza metafora yoki metonimiyaga, mantiqiy perifraza esa predmetning o'ziga xos biror-bir xususiyatiga asoslangan bo'lishi haqidagi izoh bilan to'ldiradi.[2-194b]

Tilshunosligimizda metaforik perifraza degan tushuncha ham bor. Metafora ma'no ko'chisning bir turi bo'lib, tasviriy ifodalar, ya'ni perifrazalar metaforani hosil qilishning eng samarali usullaridan biridir. Misol uchun, yashil boylik (o'rmon) yoki oltin boshqoq(bug'doy) perifrazalarini oladigan bo'lsak, ularda tashqi o'xshalik(ya'ni o'rmondagi daraxtlarning yashilligi va ularning bizning eng katta boyligimiz ekanligi va bug'doyning oltin kabi sariqligi nazarda tutilyapti) asosida ma'no ko'chishi orqali ifodalangan.

Badiiy asarlarda nafaqat badiiy asarlarda she'riyatimizda ham periferik birliklarning o'rni katta. Masalan, Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" asarida buni ko'rishimiz mumkin:

O`rtoqlar, qo`lni qo`lga berib, jon-jahdimiz bilan mehnat qilib, ona sutiday oppoq, halol “oq oltin”imizni yig`ib terib olaylik!

Etagimni lang ochib qarayman – bir chanoq paxta etagim bir burchida oppoq moyakday bo`lib turadi.

Yoki bo`lmasa Tog`ay Murodning yana bir asari “Momo yer qo`shig`i” asarida ham ko`ramiz. Masalan: Saraton sarg`aydi. Sunbula bolaladi. Endi “oq oltin” ham hammani hasharga chorlaydi.

Ushbu gaplarda “oq oltin”, “oppoq moyakday” perifrazalari paxta ma`nosini anglatyapti.

Perifrazalarga, asosan, nutqiy hodisa deb qarash va bundan tashqari periferik birliklarni ham shaklan, ham mantiqan murakkab tabiatli hodisa ekanligini ham alohida qayd etish joiz. Perifrazalar tilshunoslikning eng murakkab hodisalaridan biri hisoblanadi. Perifrazada tasvirlanayotgan tushunchaning ayni matn va vaziyat uchun eng muhim sifati, belgisi, xususiyati birinchi o`ringa qo`yiladi. Perifrazaning asosiy vazifasi matnning ifodaviyligini, bayonning ta`sirchanligini oshirishdir, shuning uchun ular asosan badiiy adabiyotlarda va og`zaki so`zlashuv tillarida ko`p uchraydi. Masalan, buni qishloq xo`jaligidagi perifrazalarga bog`lab tushuntiradigan bo`lsak, baraka urug`i sifatida badiiy adabiyotlarda yoki og`zaki nutqlarda chigit tushuniladi. Yoki bo`lmasa dehqonlarning asosiy ish asboblari bo`lgan traktorni oladigan bo`lsak, unga nisbatan dehqonning qanoti yoki po`lat ot perifrazalarining qo`llanilishini ko`rishimiz mumkin. Bundan tashqari, yana ko`plab perifrazalarni uchratishimiz mumkin: oltin boshog`bug`doy, ekinning qoni-suv, kuush tola-pilla va hokazo.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, perifrazalarning badiiy adabiyotlarda, nafaqat badiiy adabiyotlarda balki kundalik hayotimizda ham o`rni juda katta. Ular o`z navbatida nutqning ta`sirchaligini, uslubiy jihatdan boyligini ko`rsatib beruvchi birliklardir. Qishloq xo`jaligida ham tasviriy ifodalar ko`pligi va ulardan o`rinlicha foydalanishimiz kerakligini alohida ta`kidlab o`tishimiz kerak. Perifrazalar asosan publisistik uslubda, badiiy uslubda juda ko`p qo`llaniladi. Badiiy adabiyotlarda buning yaqqol isbotini ko`rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmadova U.Sh. “Perifraza” atamasi va uning nomlanishdagi o`rni(433-434-b) // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal Impact Factor; september 2021
2. Xolmuratov I., Amangeldiyev U. O`zbek tilining boyishida perifrazalarning o`rni(194-b) // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal Impact Factor; 22.04.2023
3. Nurmonov A., Sobirov A., Qosimov N., Hozirgi o`zbek adabiy tili(202-220-b). Toshkent, 2001
4. Gayratova G. Tilshunoslikda tibbiy perifrazalar va ularning o`ziga xos xususiyatlari(167) // International Multidisciplinary Scientific Conference on Ingenious Global Thoughts Hosted from KualaLumpur, Malaysia; may 2021
5. Т. В. Лыскова “Классификация перифрастических значений в аспекте денотативно-семантических корреляций” // Ярославский педагогический вестник – 2010 – № 4 – Том I (Гуманитарные науки)
6. Р. У. Нормуродов ПЕРИФРАЗЫ, ОБРАЗУЕМЫЕ С ПОМОЩЬЮ МЕТАФОР // Вестник Челябинского государственного университета. 2011. № 8 (223). Филология. Искусствоведение. Вып. 51. С. 100–102

7. Valisherovna, Oripova Parvina, and Toirova Guli Ibragimovna. "MINNATDORCHILIK–MULOQOT MANBAI SIFATIDA." «CONTEMPORARY TECHNOLOGIES OF COMPUTATIONAL LINGUISTICS» 2.22.04 (2024): 126-129.
8. Abduvahobovna, Xomidova Munavvara, and Toirova Guli Ibragimovna. "KECHIRIM–NUTQIY AKT SIFATIDA." International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING 5.2 (2024): 235-237.
9. Ibragimovna, Toirova Guli. "Responsibility-one Appearance of a Speech Act." Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education (2994-9521) 2.5 (2024): 164-168.
10. Rakhmatovna, F. Z. (2023). Similarity and Differences Between Shortened Word and Abbreviations.
11. Бахшиллоева, Гульнора, and Гули Тоирова. "Said ahmadning “qorako’z majnun” asarida o’zbek milliy urf-odatlari." in Library 1.1 (2024): 166-169.

Badiiy adabiyotlar

1. Tog`ay Murod “Otamdan qolgan dalalar” romani // “Zukko kitobxon” nashriyoti, 2022
2. Tog`ay Murod “Momo yer qo`shig`i” // “Nurafshon-Kitob-Ta`minot” nashriyoti, Toshkent 2022

Internet saytlari

1.Wikipediya.uz

2.Ziyonet.uz

3.fayllar.org